

O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

MADANIYATLARARO MULOQOT SOHASIDA XORIJIY MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHGA OID ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR

Qurbonova Farangiz Maxmudovna
farangizabduraximova131@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada madaniyatlararo muloqot sohasida xorijiy mutaxassislarni tayyorlashning zamonaviy ilmiy yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda globallashtirish sharoitida ushbu yo'nalishning dolzarbligi asoslab berilib, madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishning nazariy asoslari yoritilgan. Shuningdek, mutaxassislarni tayyorlashning kognitiv, amaliy va integrativ yondashuvlari ko'rib chiqilib, ularning samaradorligi tahlil qilingan. Maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida uchraydigan muammolar, jumladan, raqamlashtirish, ko'p madaniyatli muhit va tez o'zgarayotgan madaniy kontekst bilan bog'liq masalalar ham yoritilgan. Amaliy tavsiyalar orqali ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari taklif etilgan. Xulosa sifatida, madaniyatlararo muloqot sohasida mutaxassislar tayyorlash kompleks yondashuvni talab etishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: madaniyatlararo muloqot, xorijiy mutaxassislar, kommunikativ kompetensiya.

Globallashtirish jarayonlarining jadallashtirish va xalqaro hamkorlikning kengayishi sharoitida madaniyatlararo muloqot sohasida mutaxassislar tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ta'lim yondashuvlari nazariy izlanishlar, fanlararo integratsiya hamda amaliy tajriba uyg'unligiga asoslanadi [1]. Ushbu maqolada xorijiy mutaxassislarni tayyorlashning asosiy ilmiy yondashuvlari, ularning zamonaviy talablarga mosligi va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi.

Madaniyatlararo muloqot fan sifatida sotsiologiya, lingvistika, madaniyatshunoslik va psixologiya kesishmasida shakllangan [2]. Ushbu yo'nalishda bir qator muhim nazariy konsepsiyalar mavjud:

Madaniy shok nazariyasi (Oberg), shaxsning yangi madaniy muhitga moslashuv jarayonini tavsiflaydi [3].

G. Xofstede tomonidan ishlab chiqilgan madaniy o'lchamlar modeli turli madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni tahlil qilish imkonini beradi [4].

Kommunikativ kompetensiya nazariyasi (Hymes) samarali muloqot uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni o'z ichiga oladi [5].

Mutaxassislarni tayyorlash yondashuvlari

Zamonaviy ta'lim amaliyotida xorijiy mutaxassislarni tayyorlash bir necha asosiy yondashuvlarga asoslanadi:



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

Kognitiv yondashuv

Ushbu yondashuvda nazariy bilimlarni o'zlashtirishga ustuvor ahamiyat beriladi. Talabalar ma'ruzalar, seminarlar va mustaqil o'rganish orqali madaniy farqlarni anglaydilar [1].

Amaliy yo'naltirilgan yondashuv

Bu yondashuv amaliy faoliyatga asoslanadi. Rol o'yinlari, keys-tahlillar va loyihaviy ishlar orqali talabalar real hayotiy vaziyatlarda tajriba orttiradilar [6].

Integrativ yondashuv

Nazariya va amaliyotni birlashtirgan ushbu yondashuv kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish bilan bir qatorda madaniy kontekstni chuqur tushunishni ham ta'minlaydi [2].

Madaniyatlararo mutaxassislar tayyorlash jarayoni bir qator dolzarb muammolar bilan bog'liq:

- Madaniy kontekstning tez o'zgarishi – globallashtirish ta'sirida an'anaviy qadriyatlar transformatsiyaga uchramoqda [4].
- Ta'limning raqamlashtirilishi – virtual muhit, simulyatsiyalar va onlayn platformalar ta'limning ajralmas qismiga aylanmoqda [7].
- Ko'p madaniyatli ta'lim muhiti – turli madaniyat vakillari bilan ishlash pedagoglardan maxsus metodik tayyorgarlikni talab qiladi [6].

Xorijiy mutaxassislarni samarali tayyorlash uchun quyidagi tavsiyalar muhim hisoblanadi:

- moslashuvchan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish;
- raqamli texnologiyalardan keng foydalanish;
- emotsional intellekt va konfliktlarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- amaliyotchilarni ta'lim jarayoniga jalb etish [7].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, madaniyatlararo muloqot sohasida mutaxassislarni tayyorlash kompleks yondashuvni talab etadi. Nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va raqamli texnologiyalar uyg'unligi zamonaviy ta'limning samaradorligini ta'minlaydi [1]. Bunday yondashuv mutaxassislarning nafaqat kasbiy, balki shaxsiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi hamda ularni global muhitda samarali faoliyat yuritishga tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

1. Hofstede G. Culture's Consequences. Sage Publications, 2001.
2. Hymes D. On Communicative Competence. 1972.
3. Lytvynenko O. Organization of Distance Learning Processes. Kropyvnytskyi, 2021.
4. Modern Digital Technologies and Innovative Teaching Methods. Ternopil, 2022.
5. Oberg K. Cultural Shock: Adjustment to New Cultural Environments. 1960.
6. Palamarchuk V. F. Innovative Processes in Pedagogy. Kyiv: Krok, 2018.
7. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge, 2014.

